

**Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li**

*Namangan davlat universiteti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada madaniy tadbirlarda qo'llaniladigan badiiy bezak turlari,o'ziga xos xususiyatlari,qo'llanishi va rassom bilan ishslash aks ettirilgan*

**Kalit so'zlar:** *rejissyor, rassom, naqqosh,dizayner, bezovchi dekorotor, muhandis -konstruktur ,sahnaviy dinamik, syujetli va obrazli spektakllar*

## **ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОФОРМЛЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ**

**Мамашукуров - сын Озодбека Эркина**

*Nаманганский государственный университет*

**Аннотация:** *этот артикуль используется в культурно-массовых мероприятиях отражены виды художественного оформления, их особенности, применение и работа с художником.*

**Ключевые слова:** *режиссер, художник, живописец, оформитель, декоратор-декоратор, инженер-конструктор, сценическая динамика, сюжетные и характерные пьесы.*

## **ARTISTIC DECORATION AT CULTURAL EVENTS**

**Mamashukurov is the son of Ozodbek Erkin**

*Namangan State University*

**Abstract:** *this article is used in cultural events types of artistic decoration, their characteristics, application and work with the artist are reflected.*

**Key words:** *director, artist, painter, designer, decorative decorator, engineer-constructor, stage dynamic, plot and character plays.*

Keyingi paytlardagi ommaviy teatrlashtirilgan tadbirlarni shartli ikkita guruhga ajratish mumkin. Uning "jimjimador dekorativ tomoshalar" va "syujetli va obrazli spektakllar" deb nomlasak bo'ladi. Birinchi yo'naliishdagilarga xos, yarqiragan ranglar, boy liboslar, murakkab katta saflanishlar, maydon yoki sahnadagi naqshlarning tez-tez o'zgarishi, umuman bir so'z bilan aytganda, "shov"ga tenglasa bo'ladi. Bunday bayramona ko'ngilochar tomoshalardagi o'zgarishlarning anqiligi, harakatning senixronligi, rang, nur, va tovushlarning monandligi ko'z va

qulqoni erkalab, tomoshabinlarda nurli hayotbaxsh tuyg'u, ko'tarinkilik, tantanavorlikni uyg'otadi. Bunday yo'nalihlarning boshini sportga oid bayramlada izlash kerak. Bunday yo'nalihlarga, albatta, tegishli bahoyimizni bildiramiz. Lekin, bizni ko'proq ikkinchi yo'nalihs - "obrazli – syujetli tadbir" qiziqtiradi. Ikkinci yo'nalihsning mohiyati, tub ma'nosи ommaviy teatr vositalari orqali publisistik tashqivot va bevosita xis-tuyg'uga to'la spektakl yaratishdir. Ehtimol, bu yerda sahnaviy kuchli taassurot, nur va rangning uyini kamroq bo'lar, liboslar ham unchalik yarqiramas, jimjimador qayta saflanishlar unchalik bo'lmas , lekin bu yerda fikr, syujet, qarama-qarshiliklar, kuchli to'qnashuvi xayajon, eng asosiysi, badiiy obrazlar bor.

Badiiy obraz topish rejissyorning butun ishini qamrab oladi, qolaversa, rassom bilan ishslash ham xuddi shunday. Rejissyorda bo'lgusi tadbirning dastlabki rejasi paydo bo'lishi rassom bilan ish boshlaydi. Ssenariy baravar yoki undan keyin yoziladi.

Tomoshaviy badiiy obraz yaratish imtijozi faqat ommaviy tadbirlarga taalluqli emas, bu tomoshaviy san'atning barcha turining vazifasiga kiradi. Ommaviy tadbir rivojlanishiga yordamlashuviga an'anaviy teatrda obrazli yechimiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan: V Shekspir "hamlet" spektaklidagi bahaybat "darvoza" ( rej. N.P.Oxlopov, ras.V.F.Rindin) yoki I. M. Tumanov va B.G.Knoblok tomonidan sahnalashtirilgan. Mavzuli konsertdagi – "Yer shari" ommaviy tadbirini olaylik. Ixcham sahnaviy, zinapoyalar konstruksiyasini o'ylasak – da uni asta – sekin amalga oshirsak, bu konstruksiyadan birida " anhor " – dagi zinapoya, yoki metro, eskalotori, yoki yer tagidan o'tish zinalari yoki teatr oldidagi zinapoyalar yaratish mumkin. Bunday o'zgarishlarga dekoratsiyalarnig " jonli" elementlari – raqqosalar yordam berishlari mumkin. Ularnig qo'llariga rekvizitning har xil bo'laklarini berish (shahar soati, ko'cha chiroqlari, telefon – aftomat , har xil belgilar) mumkin. Oqibatda chiroyli, quvon Toshkent shahrining obrazini yaratsak bo'ladi. Demak, bu misolda rejissyor va rassom bezakning aniq topilgan bo'laklari orqali butun tadbirning obrazini yaratish mumkinligini nazarda tutadi.

Keyingi paytlarda ommaviy tadbir uchun harakat joyini bezash ishlari atrof muhitini yaratish deb nomlana boshladi. "Atroq –muhit" degan ibora ekologiyadan kirib keldi. Maklonni tashkil etish usulini topish, sahnaviy atmosferani yaratish, maxsus sahnaviy maydon loyihasini tuzish, tomoshabin uchun joy tashkil qilishni o'ylash, tomoshabin va ishtirokchilarning chiqish va etish yo'llarini izlash, jamoalarning to'planish, kiyinish joylarini belgilash va boshqalarni fikrlash zarur. Bu holatda teatr rassomining vazifasi dizayin bezovchi- dekarotor, muhandis-konstruktor vazifasi bilan qo'shilib ketadi.

Ochiq maydon va noan'anaviy sahnalarda ommaviy teatrlashtirilgan tadbir sahnalashtirilayotgan rejissyor va rassomning asosiy vazifasi - maydonni tashkil

etishdir. Tanlangan joy o'sha tadbirga yordam berishi uchun ya'ni, mavzu va oliv maqsadga to'g'ri kelishi, rejissyor fantaziyasi turtkilashi, sahnaviy maydon yechimini rassomning esiga solishi mumkin. Yoki aksincha, g'oyani amalgalashirishda rejissyor va rassomga halaqt berish ham mumkin. Bunday holatda o'zgartirib bo'lmaydigan fe'llar kabi, sahnaviy maydonning kamchiliklarini "yashirmasdan" aksincha, ularni yaxshi tomonga burish zarur.

"Atrofdagi muhit" ni yaratishda butun harakat joyining umumiy bezagi ham mo'ljallab qo'yiladi, hatto harakat joyiga olib keladigan barcha yo'llar ham. Bularning hammasi o'sha tadbirning zarur atmosferasiga tomoshabilarning cho'lg'ab tashlash maqsadida amalga oshiriladi. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda nurli va tovushli bezak o'ta muhimdir. Sahnaviy maydon atrofini o'rab turgan maydon, makon, bezaklar bilan qanchalik ko'p o'ralsa, shuncha yaxshi.

Yuqorida aytganimizdek, ana'naviy teatrtdagi zalning me'moriy tuzilishi, interiri va boshqalar. Oddiy bayramlar tomoshasi atmosferasini yaratadi. Ochiq maydonda amalga oshirilayotgan ishlar ommaviy tadbir sharoitida ushbu bayram atmosferasini faqat rejissyor va rassom yaratadi.

Ba'zida imkon boricha oddiy, lekin orginal usulda, oddiy qilib aytganda, bir zarb bilan bayram atfosferasini yaratishga muaffaq bo'lishi mumkin. Masalan, Grenobilda qishki olimpiada ochilishiga bag'ishlangan tadbirini o'yingohda sahnalashtigarn mashhur kino rejissyor K.YuD Lilush qiziqarli va oson usulini topgan. Qor bilan qoplangan o'yingoh tribunalarida po'stin va qalpoqda o'tirgan tomoshabin ustiga vertaliyotlarda jonli atirgulli hushbuy hidi anqib turgan millionlab turli rangdagi gul barglari irg'itilgan. Tadbirga to'g'ri keladigan atmosferiga tomoshabinini ko'mib yuborish, qoidadagidik, maxsus taklifnomadan, harakat joyiga olib keladigan yo'llarini bezash, teatrlashtirishdan va hokazolardan boshlandi. "Atrofdagi muhit" ni yaratishga yana bitta vazifa, ya'ni ommaviy tadbir uchun maxsus sahnaviy maydonni loyhasini tuzish ham kiradi.

Ana'naviy teatr binosida sahna va zalning mutanosibligi, odamning ko'rish maydoni hisobga olinib, me'morlar tomonidan o'ylab qo'yilgan. Shu bilan birga sahnada ro'y berayotgan voqeani va sahnaning barcha joyini tomoshabin yaxshi ko'ra oladi.

Ommaviy teatrlashtirilgan tadbir sahnalashtirish kengligi va insoniy gavda mutanosibligini bo'glash turganda maydon mutanosibligini maydon qurish burchagini chegaralab, uning diqqatini maydondagi tomoshabinlarga burish va boshqalar zarur.

Bulardan tashqari, teatrcha texnik imkoniyatlarga (aylanuvchi sahna, ko'tariluvchi shtangerlar, pardavah/k) ega bo'lgan teatr binosida rejissyor va rassom o'sha sharoitiga moslashdilar. Va bor bo'lgan vositalarini ishlataladilar. Ommaviy tadbir sahnalashtirilayotganda esa uning turiga va harakat joyiga qarab sahnaviy makonni turli usullarda yechish mumkin. Harakat joyini bir

joydan boshqa joyga ko'chirish maqsadida juda ko'p katta va kichik maydondan iborat maxsus sahnalar qurish mumkin.

Ommaviy tadbirga ketadigan katta xarajatlarni va sarflangan mablag'larini qoplay olmasligini nazarada tutib ( chunki bunday tadbirlar bir marta namoyish etiladi, tadbirga chiptalar sotilmaydi, balki tarqatiladi), sahna bezagi iloji boricha arzon va ixcham bo'lishi kerak. Lekin, baribir u bir tomondan qiziqdir, mezansinalar yaratish imkonini beradigan konstruktiv bo'lishi, ikkinchi tomondan, yuqorida aytganimizdek, rejissyorga mavzuni ochishga, tomoshabinga tezroq tushunishga yordam beradigan simovlik va obrazli (ifodali) bo'lishi kerak.

Madaniy tadbirda maydonni loyhalashtirilyotgan rassom sahnaga tushadi. Sahnaviy denamik yukni ham nazarda tutish zarur. Qadam tashlayotgan yoki raqs tushayotgan bir nechta ming terilgan temir yo'l ko'prigini ham qimirlatib, qulatib yuboradi. Odamlar bezakning vertikal bo'laklariga shamolning ta'sirini, himoya qilish va boshqa narsalarini nazarda tutish lozim.

Rassom sahna planshetini ( yuzi) ahvolini ham o'yashlari, o'yingoh maydoni bo'lsa, o'sib chiqqan o't o'lalarning barchasini yulib tashlashlikning oldini olish; mabodo, maydon asfalt yoki matodan iborat bo'lsa, raqsga tushish imkoniyatini yaratish, umuman, "ommaviy tadbirning texnik xafvsizligini ta'minlash katta ahamiyatga egadir".

Agar harakat ochiq maydonda bo'layotgan bo'lsa, nurli, praiksion va ovozni kuchaytirivchi aparatlarga enirgiya manbalarini qayerdan olish kerak? Bunday holatda kuchli tok kibili tortish (qayerdan, masaofa qancha? ), maxsus mashinalarda (extvagin, tonvegenlar) foydalanish, ko'chma dezil elektrstansiylarini ishlatish kerak, ya'ni ularning hammsini rejissyor va rassom oldindan o'ylab ko'rishi zarur. Projektor, kino operat, denamikalarini qanday qilib joylashtirish va o'rnatish mumkin?

Ommaviy tadbirning yana bitta o'ziga xos bezakni imkon boricha arzonlashtirish xususiyati mavjud. Ochiq paradox, tadbir yorqin, ulug'vor, ifodali va shu bilan birga qimmat bo'lmasligi zarur. Shuning uchun rassom keyinchalik ishlatish mumkin bo'lgan bezakning tayyor bo'laklaridan imkon boricha foydalanishi zarur, ya'ni tayyor teatr stanoklari, shermalar, zinapoyalar, yuk avtomoshinasi, pretsiplari va hokazolardan foydalaniladi. Turli xil sahnaviy maydonlarning, badiiy fon devorlarini, yoritish minoralarini loyhalashtirishda hamma biladigan va effektli material bu oddiy taxta – yog'ochdir. Elementlaridan, xuddi bolalarining konstruktor o'yinchog'i kabi amalda istalgan shaklni yig'ishi mumkin. Ba'zida , tayyor detallardan har xil ko'rinishda joylashtirilgan, parallel xatti-harakatga imkoniyat yaratib beruvchi, kombinatsiyalangan katta sahnani loyhalashtirish mumkin.

Sahnaviy maydonni loyhalashtirayotgan rassom va rejissyor ko'p sonli ishtirokchilarining tez paydo bo'lish va chiqib ketish imkoniyatini, shuningdek,

numerlar almashinuvini yengil va denamikligini hisobga olish zarur. Ko'p hollarda bizga tanish sahna, ya'ni parda, yoki bir xil kiyimdag'i ishtirokchilar, ramka oldidan olib o'tiladigan katta bayroqlar bo'lishi mumkin. Yana nurli, suvli o'rini pardalardan ham foydalanish mumkin. Bularning hammasi almashtirishni sezdirmaslik uchun ishlatiladi.

“ Atrofdagi muhit’ ni yaratishda tomoshabinni joylashtirish muammosini ham oldindan o’ylab qo'yish zarur. Tomoshabinni qanday joylash, ular turishadimi, o’tirishadimi yoki ko’chib yurshadimi: tiqilinchsiz, ur-yiqitsiz ularni qanday qilib harakat joyiga tez olib kirib, tez olib chiqib ketish kerak? Haraktalish tarssasi (yo’li) ni o’ylab chiqish, maxsus belgi va ko’rsatkichlar o’rnatish – bularning hammasi ommaviy tadbir rejissyori va rassomi hamkorligini o’ziga xos xususiyatidir. Tadbir atmosferasiga aralashuvini boshlanishi hisoblangan, taklifnomadan boshlab harakatlanish jadvalini va transport to’xtash joyini muofiqlashtirishgacha ommaviy tadbir rejissyori va rassomning vazifasiga kiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari.— Toshkent; Aloqachi 2008
2. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2002
3. Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. – Toshkent: Cho‘lon 2007
4. Muhammedov M. Rejissura asoslari. Toshkent: O‘DSI bosmaxonasi 2008
5. Djon Govard Louson. Теория и методика Playwriting и написания снария
6. Rustamov V. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. Toshkent : Fan va texnologiya 2013
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.google.ru](http://www.google.ru)
9. [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz)